

## TOSHKENT METROPOLITENIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHATLAR HAQIDA

**Xusanova Nihola Baxtiyor qizi**

*Toshkent davlat transport universiteti talabasi*

[xusanovanihola7@gmail.com](mailto:xusanovanihola7@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Toshkent metropoliteni qurilishi va rivojlanishi haqida bo'lib, Toshkent metropolitenidagi olib borilayotgan islohatlar, bosqichma-bosqich rivojlanish va xalqaro aloqalarga e'tibor qaratadi. Ushbu maqolaning maqsadi Toshkent metropoliteni haqida batafsil ma'lumot berishdir.

**Kalit so'zlar:** Toshkent metropolitenining qurilish bosqichlari, metropolitenning xalqaro tashkilotlar bilan aloqasi, xizmatlari va xavfsizlik, Toshkent metropoliteni haqida va olib borilayotgan ishlar, texnika xavfsizligi qoidalari.

Toshkent metropolitenining asosiy faoliyatini turi bu xar uch yo'lda yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmat ko'rsatish. Toshkent metropoliteni murakkab muxandislik qurilmalari komplekslaridan tashkil topgan.

Toshkent metropoliteni Markaziy Osiyodagi yagona va birinchi, ya'ni Moskva, Sank-Petreburg, Kiyev, Boku, Tbilisi, Xarkov shaxarlaridan keyin, hamda shahrimiz aholisi bir milliondan oshgandan so'ng 1972 yil 25 iyulda metropoliten qurilishi boshlandi. Uzunligi 12 km bo'lgan 9 bekatli Toshkent metropolitenining birinchi navbati «Sobir Rahimov» hozirgi Olmazor bekatidan «Oktyabr revolyutsiyasi hiyoboni»gacha hozirgi «Amir Temur hiyoboni» bekatigacha, «Chilonzor» elektrodeposi kompleksi va markaziy «Aloqa uyi» bilan 1977 yil 7 noyabrda ishga tushirilgan.

1980 yil avgust oyida 3 bekatli, 4 km uzunlikdagi Chilonzor yo'lining ikkinchi navbati ishga qabul qilindi, xozirgi «Amir Temur xiyoboni» bekatidan «Maksim Gorkiy», hozirgi «Buyuk ipak yo'li» bekatigacha. Ikkinci navbatini ishga tushirilishi bilan janubiy - g'arbdan shimoliy - sharqqa cho'zilgan shahar markazidan o'tgan Toshkent metropoliteninig 16 kilometrlik 12 bekatdan iborat bo'lgan Chilonzor yo'li qurilishi tugallandi.

1984 yil 26 noyabrda O'zbekiston yo'naliشining 5 km uzunlikdagi 5 ta bekatdan tashkil topgan «Alisher Navoiy» bekatidan «Toshkent» bekatigacha, shahar markazini temir yo'l vokzali bilan tutashtiruvchi 1-chi navbati ishga tushirildi. Uzunligi 3 km ikkita bekatli «Toshkent» bekatidan «Chkalov» bekatigacha ikkinchi navbati 1987 yil noyabr oyida ishga tushirilgan.

1989 yil noyabr oyida 2 bekatli - «Alisher Navoiy» bekatidan «Chorsu» bekatigacha uchinchi navbati ishga tushirilgan. 4 kilometrli ikki bekatdan iborat bo'lgan «Chorsu» bekatidan «Beruniy» bekatigacha to'rtinchi navbati 1991 yil aprel oyida ishga tushirilgan. O'zbekiston yo'lining umumiy uzunligi 14 km, 11 ta bekatni va «O'zbekiston» elektrodeposi kompleksini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi davrida Toshkent shahrining aholisi zinchisoblangan mavzelardan bo'lgan Yunusobod tumanida 2001 yilning avgust oyida metropolitenning uzunligi 7,6 km 6 ta bekatdan iborat bo'lgan Yunusobod yo'lining birinchi navbati ishga tushirildi.

Hozirgi kunda Toshkent metropolitenining umumiy uzunligi 39 km bo'lib, 29 ta bekat, 2 ta elektrodepo va xarakat takibini ta'mirlash va extiyot qismlar ishlab chiqarish deposi ishlab turibdi.

2000 yilda xarakat takibini ta'mirlash va extiyot qismlar ishlab chiqarish deposi ishga tushirildi, u yerda na faqat metropoliten talabini qondirish, balki shahar yo'lovchi transporti korxonalariga kerakli detallar, extiyot qismlar va nostandard jixozlar ishlab chiqarish bo'yicha buyurtmalarini bajaruvchi malakali ishchi-xodimlar bor. Depo sharoitida yiliga 48 ta xarakat tarkibi vagoni ta'mirlanadi.

Toshkent metropoliteni iqlim sharoiti hisobga olingan holda qurildi, unda yoz fasli jaziramasi sharoitida xavoni namlatishni o'z ichiga olgan quvvatli tonnelni shamollatish ventilyatorlar qo'llangan. Yana bir o'ziga xosligi - bekatlarni me'moriy - badiy bezagi a'nanaviy milliy usulga ega, qurilishda mahalliy qurilish materiallari: marmar, granit, sopol, shisha qo'llangan.

Metro bu faqat bekatlar, tonnellar va elektropoyezdlar emas, balki metropolitenning o'ziga hos katta va murakkab xo'jaligi bor. Metropolitenda Elektrta'minoti, Elektromexanika, Yo'l xizmati, Tonnel inshootlari, Signallashtirish va aloqa, Xarakat xizmatlari, Chilonzor va O'zbekiston elektrdepolari, xaprakat tarkibini ta'mirlash deposi zamonaviy uskunalar, qurilmalar va moslamalar bilan ta'minlangan holda faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Xozirgi kunda metropolitenda ishchi - xodimlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda, chunki ko'p mutaxassisliklar o'zining aloxida xususiyatiga ega va shu sababli quyidagi kasblar: xarakat tarkibi poyezdi mashinisti, bekat navbatchilari va operatorlar ishlab chiqarishdan ajratilgan holda, metropoliten o'qitish markazida o'qitiladilar. Ishlab chiqarishdan ajratilmagan holda Elektromexanika xizmati elektrik-chilangarlari, Signallashtirish va aloqa, Elektrta'minoti xizmatlariga mutaxassislar o'qitiladilar.

Bizning xizmatchilar o'z vazifalari va lovozimlari talablarini to'laqonli va xavfsiz bajarishlari uchun metropoliten ularga ish sharoitlarini yaratib, ishlab chiqarish va maishiy

xonalari bilan ta'minlab beradi, yozda ventilyatorlar, qishda qo'shimcha isitish jixozlari bilan ta'minlab turadi.

Metropoliten xizmatchilarining texnik tayyorgarligini faollashtirish maqsadida aniq ishlar bajarilmoqda. Ixtirochi va ratsionalizatorlarning uskuna va inshootlarning texnik xolatini yaxshilash, ehtiyyot qismlarni mahalliy sharoitda ishlab chiqarishga tadbiq etilmoqda.

Metropolitenimiz mintaqaviy xarorat sharoitlariga moslashtirib qurilgan. Bekat va tonnellarda xavo doimiy ravishda tekshirilib, optimal holda ushlab turiladi: yoz oylarida +27S dan oshirilmaydi, qish oylarida esa +15S dan pastga tushmaydi. Xavoning namligi 57-60 foiz, changlanish esa 1-2,5 milligrammdan oshmaydi. Bundan tashqari, Toshkent zilzilaga oid mintaqada joylashgan va shuni xisobga olib, mutaxassislar tarafidan kuchaytirilgan konstruksiyalar ishlatilgan. Faol zilzilaga qarshi turadigan qurilish konstruksiyalari va qurilmalar birinchi bor bizning metropolitenda yaratildi.

Yunusobod yo'li qurilishi va ishga tushirilishi yangi, zamonaviy moslamalar, texnik qurilmalar bilan olib borilgan. Tortuvchi yer osti elektr nimstansiylarida «Zonnenshayn» akkumulatorlari, bekat va tonnellarda Germaniya firmasining TAF - 16/7,2 rusumli ventilyatorlari o'rnatilgan. Metropolitenning barcha qurilmalari avtomatlashtirilgan, telemexanika orqali masofadan nazorat qilinadi va boshqariladi. Yiliga ko'plab yangi texnikalar joriy qilinadi.

Toshkent metropoliteni boshqa shahar transporti vositalariga qaraganda ekologik toza transport turi xisoblanadi. Metro xar kungi xayotimizga butkul va mustaxkam joylashgan. Fuqarolarimiz metropolitenni aniq, tez, benuqson va yarim tunggacha xizmat ko'rsatishiga ko'nikib qolganlar. Bekatlarning tozaligi, mo'tadil iqlimi yo'lovchilarga xuzur bag'ishlaydi.

Metropoliten yo'lovchilari va xodimlari o'zaro xushmuomalada bo'lishlari, metroning texnik vositalari, inshootlari va qurilmalarini extiyot qilishlari kerak;

Yo'lovchilar jamoat tartibini saqlashlari, ozodagarchilik talablariga, bekatlarning xarakat tarkibi vagonlarida joylashtirilgan Metropolitenden foydalanish qoidalariga riosa qilishlari shart.

Yo'lovchilar qoidadagi o'z vazifalarini aniq bilishlari va amal qilishlari shart, o'zlariga yaratilgan xuquqlardan foydalanishlari mumkin va qoidada ta'qiqlangan bandlarga amal qilishlari kerak.

Toshkent metropoliteni (MSOT) Xalqaro transport tashkilotlarining Uyushmasi va Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi metropolitenlari Uyushmasining a'zosidir. Ushbu aloqalar orqali biz dunyo miqyosidagi metropolitenlarning qurilishi va foydalanish masalalarida, yangi texnika va zamonoviy uskunalar, moslamalar, qurilmalardan foydalanish, yo'lovchilarga yuqori darajada madaniy xizmat ko'rsatishda ko'p axborotlarga

egamiz. Ushbu ma'lumotlarni o'z mexnat faoliyatimizda foydali va unumli deb topgan holda korxonamizda qo'llaymiz.

1992 yilning fevral oyida tashkil topgan «Metro» xalqaro assotsiatsiyasi bugungi kunda MDXda faoliyat ko'rsatayotgan 15 ta metropolitenni o'z tarkibiga oladi. Jumladan - Toshken metropoliteni, Rossiyaning 7 ta shaharlarining metropolitenlari, Ukrainianing 3 ta shaharlarining metropolitenlari, Belarus, Gruziya, Armaniston va Ozarbayjon metropolitenlari. Bundan tashqari, ushbu tashkilot tarkibiga vagonlar va ularning butlovchi qismlar, texnologik uskunalar, eskalatorlar, ventilyatorlar, suv chiqarish nasoslari va boshqa mexanizmlarni ishlab chiqaruvchi Rossiya va Ukrainianadagi zavodlar xam kiradi.

Barcha metropolitenlar yagona texnologik uslubda, o'xshash loyixa asosida qurilgan va ulardan shu tarzda foydalaniadi. Bu mutaxassislarga samarali xamkorlik qilish, tajriba almashish, faoliyatning umumiyligi strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish imkonini kengaytiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xrapov V.G "Tonneli metropoliten" M, 1989
2. Rashidov T. R/ Ishanxodjayev A.A , Seysmostoykost tonnelinx konstruksiya metropolitena melkogo zalojeniya, T.,1993